

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING  
O‘ZIGA XOZ YO‘NALISHLARI**

*Xodjiboeva Mukaddas Hakimjonovna*

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat*

*chet tillari instituti tyutori*

*+998973767511*

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini rivojlantirishda mahallaning o‘rni va mahalladagi mavjud muammolar, aholining kundalik masalalarini hal etish bilan bog‘liq masalalar taxlil etilgan.

**Аннотация:** В статье анализируется роль микрорайона в развитии новой системы работы с молодежью, существующие проблемы микрорайона, а также вопросы, связанные с решением повседневных проблем населения.

**Abstract:** The article analyzes the role of the mahalla in developing a new system of working with youth, the existing problems in the mahalla, and issues related to solving the daily issues of the population.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar, tarbiya, mahalla, ta'lim muassasalari, mahallabay ishlash, **yoshlar** bandligi, “Yoshlar balansi”, “Yoshlar daftari”, yoshlar bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil etish.

**Ключевые слова:** Молодежь, образование, микрорайон, образовательные учреждения, районная работа, занятость молодежи, «Молодежный баланс», «Молодежный регистр», правильная организация досуга молодежи.

**Key words:** Youth, education, neighborhood, educational institutions, neighborhood work, youth employment, "Youth Balance", "Youth Register", proper organization of youth free time.

**KIRISH**

Dunyo miqyosida aholi tarkibida yoshlarning son jihatidan salmog‘i oshib borayotgan hozirgi sharoitda ularni turli havf-xatarlardan himoya qilish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan eng katta avlod bo‘lib, ular 2 milliardni tashkil etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlarni yaratish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan bo‘lib, davlat tomonidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kungacha O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti tomonidan yoshlarga oid 40 dan ortiq qonunlar qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish yo‘lida asosiy tayanch bo‘lgan yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori, salohiyatini to‘liq

namoyon etishi uchun zarur sharoit hamda imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 27 yanvar kuni yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda prezidentimiz mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliondan ziyodligi va bu – aholining qariyb 55 foizini tashkil etishini ta'kidladi. Yig'ilishda Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi va O'zbekiston yoshlari forumida yosh avlod manfaatlariga qaratilgan aytilgan takliflarni amalga oshirish, yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha tizimni joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoev bu ishlar ikkita muhim yo'nalishda tashkil qilinishi zarurligini ko'rsatib o'tdi. Birinchisi – yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'qitish orqali ularning bandligini ta'minlash bo'lsa, ikkinchisi – yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

1. Adabiyotlar tahlili: Mavjud tadqiqotlar tahlili: Yoshlar siyosati va ular bilan ishlash tizimiga doir xalqaro va milliy adabiyotlarni tahlil qilish. Tarixiy rivojlanish: O'zbekistonda yoshlar siyosati tizimi shakllanishi tarixini ko'rsatib berish. Ilg'or tajribalar: Yoshlar bilan ishlashda boshqa davlatlar tajribasi, ularning qo'llanilishi imkoniyatlari.

2. Metodologiya: Tadqiqot usullari: Tadqiqot ob'ektlari: Asosiy yo'nalishlar:

3. Adabiyotlar ro'yxati.

Har qanday islohot fuqarolar manfaatiga xizmat qilishi kerak. Buning uchun esa amaldagi harakatlar quyidan boshlanmog'i maqsadga muvofiqdir. Zero, Vatan oiladan, mahalladan boshlanadi, degan ibora bor. Shunday ekan, keyingi yillarda nafaqat, mahallaga, balki, har bir xonadonga bo'lgan e'tibor hamyurtlarimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda. Buning natijasida uzoq yillardan buyon o'z yechimini kutib turgan muammolar ijobiy yechim topa boshladi. Masalaga yanada chuqurroq kirib borish, kamchiliklarning tub ildiziga yetib borish, aholi turmush darajasini yaxshilash natijasida mamlakatda har sohada olib borilayotgan islohotlar samaradorligiga erishish uchun «mahallabay» ishlash tizimining joriy etilishi O'zbekiston Respublikasida yoshlar bilan ishlashning yangi bosqichini boshlab berdi.

Mahallabay ishlash tizimi murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan, unda har bir insonning dardini tinglash, uning qismatini tubdan o'zgartirish, jamiyat taraqqiyotini iqtisodiy o'sishlar bilangina emas, balki aholining o'z hayotidan mamnunligi bilan o'lchash kabi mezonlar mavjud. Unga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy illohotlar, ichki va tashqi resurslar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar, turli idora va tashkilotlarning «faoliyat yo'laklari» mahallalar kesimida tashkil etiladi. Buning

natijasida ayni vaqtda yurtimizdagi barcha sohalar faoliyatida va kechayotgan o'zgarishlar mohiyatida mahallabay so'zining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Respublikamizdagi barcha tashkilot, idoralarning mazkur amaliyot natijasida joylarda tashkil etayotgan ish faoliyati aynan mahallalardagi o'zgarishlar va bu orqali mavjud muammolarning hal etilishiga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, mahalladagi mavjud muammolar va aholining kundalik masalalarini hal etish birgina mahalla tizimi xodimlari tomonidan bartaraf etish imkonsiz. Shu sababli bu jarayonda har bir soha mas'ullarining ishtiroki va aralashuvi muhim ahamiyatga ega. Joylarda olib borilayotgan mahallabay ishlash mexanizmining muhim asosini barcha soha vakillarining hamjihat bo'lib, hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashayotganini ta'kidlash mumkin.

### NATIJARLAR

Mahallabay ishlash, bu – barcha soha mutasaddilarining bir musht bo'lib, mahallalardagi muammolar, aholining ijtimoiy hayotidagi muhim masalalarni birgalikda hal etishning yangicha mexanizmidir. Joylardagi muammolarni mahallabay aniqlash, bartaraf etish, xususan, hududlarda «Obod qishloq», «Obod mahalla» dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlaridan iborat ishchi guruhlar faoliyati natijasida joylardagi odamlarni qiynayotgan ko'plab ijtimoiy muammolar hal etilmoqda.

“Mahallabay” ishlash asosida “og'ir” mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha “mahallabay” ishlash yo'nalishining quyidagi asoslariga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- mahallalarning “o'sish nuqtalari”ni (ixtisoslashuv yo'nalishlarini) aniqlash va tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishda ko'maklashish;
- aholining doimiy daromad manbalarini yanada ko'paytirish, oilaviy tadbirkorlikni va o'zini-o'zi band qilib ishlash faoliyatini yanada kengaytirish choralari ko'rish;
- mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagi bo'lgan tashabbuskorlarni biznes asoslariga o'qitish;
- xonadonlarda tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, daromadlilikini yanada oshirish, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur asbob-uskuna va xom-ashyo bilan imtiyozli kreditlar asosida ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishga ko'maklashish jarayonlarini tashkil etish uchun “yetakchi” tadbirkorlik sub'ektlarini birlashtirish;
- tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish va faoliyatini monitoring qilib borish, ishlab chiqaradigan mahsuloti bozorini topishiga yordam berish.

Shuningdek,

- “yetakchi” tadbirkorlar ya'ni tadbirkorlik tajribasiga va ijobiy moliyaviy ko'rsatkichlarga ega, faoliyati mahalla ixtisoslashuviga mos bo'lgan, xonadonlarni

kooperatsiya asosida yuqori darajada qamrab oladigan, “og‘ir” mahallalarda o‘z biznesini rivojlantirish dasturiga ega bo‘lgan tadbirkorlar orasidan tanlab olinadi;

- tijorat banklari tomonidan kreditlar kooperatsiya asosida kichik biznesni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish uchun “og‘ir” mahallalarga birlashtirilgan “yetakchi” tadbirkorlik sub'ektlariga 3 yil muddatgacha yillik 10% stavkada bitta mahalla uchun 2 mlrd so‘mgacha miqdorda ajratiladi;
- yetakchi” tadbirkorlarga kooperatsiya asosida ishlayotgan fuqaro tomonidan ishlab chiqarilayotgan (yetishtirilayotgan) mahsulotlarni sotib olish yoki shartnomaga asosan fuqaroga oylik ish haqi to‘lash sharti o‘rnatiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 19 yanvarda qabul qilingan Qarori<sup>1</sup> yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratdi.

### MUHOKAMA

Qaror asosida har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma'lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;
- mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;
- yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;
- huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 йил 19 январда қабул қилинган Қарори. // Халқ сўзи, 2022 йил 19 январь.

Yoshlar yetakchisi o'ziga birlashtirilgan mahallalarda faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiradi:

- madaniyat va san'atni targ'ib qilish borasida – “San'at g'unchalari” ko'rik-tanlovi, maqom, baxshichilik va estrada bo'yicha “Yoshlar ovozi”, “Yosh musavvirlar” tanlovlari hamda “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyot festivalini o'tkazadi, shuningdek, yoshlar va bolalar teatr jamoalarini tashkil etadi;
- sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish borasida – mini-futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan otish bo'yicha musobaqalarni tashkil etadi, salomatlik uchun 5000 qadam yurish marafoni hamda “Yosh ekolog” aksiyasini o'tkazadi;
- axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish borasida “Bir million dasturchi”, “Dasturlashga birinchi qadam” loyihalarini amalga oshiradi, kibersport chempionati va “Axborot texnologiyalari bilimdoni” tanlovini o'tkazadi;
- ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish borasida – “Zakovat” musobaqasi, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Xorijiy tillar bilimdoni” va “Yosh poliglot” tanlovlari hamda “Munozara” intellektual va milliy xalq o'yinlarini tashkil etadi;
- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida – “Yosh chegarachi”, “Yosh qutqaruvchi”, “Quvnoq startlar”, “Temurbeklar”, “To'maris malikalari”, “Shunqorlar”, “Yosh huquqshunos”, “Yosh saylovchi”, “Yosh deputat” tanlovlari hamda “Men ham askar bo'laman” aksiyalari va harbiy qismlarga sayohatlarni tashkil etadi;
- tadbirkorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash borasida – “O'zbekiston uchun 100 g'oya” va “Mahallaning ishbilarmon tadbirkori” tanlovlari, “Biznesga birinchi qadam” grant loyihasi hamda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni tashkil etadi.
- har bir mahallada “Bir nuroniyga o'n nafar yosh”, “Keksa avlod uchrashuvlari” loyihalarini amalga oshiradi;
- mahallalarda yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan turkum tadbirlarni tashkil etish choralarini ko'radi.

Buning natijasida mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yaxlit vertikal “mahalla-tuman-viloyat-respublika” boshqaruv tizimini yaratish bo'yicha ishlar samaradorligini nazorat qilish, yetakchilar faoliyatida vujudga keladigan muammolarni hal qilish yuzasidan idoralararo hamkorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Demak, bugungi kunda mamlakatda yoshlarning muammo va takliflarini “mahallabay” o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joylarda yoshlar sanoat va

tadbirkorlik zonalarini tashkil etilmoqda. “Yoshlar: 1+1” dasturi doirasida o‘g‘il-qizlarni tadbirkorlarga biriktirib, ularda biznes ko‘nikmalarini shakllantirish, imtiyozli kreditlar ajratib, o‘z faoliyatini boshlashga ko‘maklashilmoqda. “Mahallabay” o‘rganishlar yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta'minlash, ular uchun kredit ajratishda ko‘plab kamchiliklar saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida ham ko‘plab muammolar bor. Aksariyat madaniyat markazlari, istirohat bog‘lari va sport komplekslarining moddiy-texnik bazasi qoniqarsiz, to‘garaklar nomiga ishlayapti. Bu muammolarni manzilli hal etish uchun har bir tuman va shahar kesimidagi bir qator quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi:

- hokimning iqtisodiyot, investitsiyalar va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha o‘rinbosarlari – bandlik masalalariga;
- soliq idorasi, savdo-sanoat palatasi va tijorat banklari rahbarlari – yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishga;
- hokimning yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga;
- tuman prokurori, ichki ishlar va mudofaa bo‘limi boshliqlari – uyushmagan yoshlar bilan ishlash, jinoyatchilikni jilovlash, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga mas‘ul bo‘ldi.

Xulosa qilinsa, mahallabay ishlash tizimi murakkab jarayon bo‘lishiga qaramasdan, unda har bir yoshning dardini tinglash, uning qismatini tubdan o‘zgartirish, jamiyat taraqqiyotini iqtisodiy o‘sishlar bilangina emas, balki aholining o‘z hayotidan mamnunligi bilan o‘lchash kabi mezonlar mavjud. Unga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ichki va tashqi resurslar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar, turli idora va tashkilotlarning «faoliyat yo‘laklari» mahallalar kesimida tashkil etiladi. Respublikamizdagi barcha tashkilot va idoralarning mazkur amaliyot natijasida joylarda tashkil etayotgan ish faoliyati aynan mahallalardagi o‘zgarishlar va bu orqali mavjud muammolarning hal etilishiga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir. Darhaqiqat, mahalladagi mavjud muammolar va yoshlarning kundalik masalalarini hal etish birgina mahalla tizimi xodimlari tomonidan bartaraf etish imkonsiz. Shu sababli bu jarayonda har bir soha mas‘ullarining hamjihat bo‘lib, ishtiroki hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashishi muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

### ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 19 yanvarda qabul qilingan Qarori. // Xalq so‘zi, 2022 yil 19 yanvar.

3. Topildiyev, O. R. Current research journal of..., 2021–masterjournals. com. The process of spiritual education of youth, 78-82.
4. Топилдиев, О. Р. (2011). Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фан. ном. дисс.... Т.: ЎзМУ.
5. Topildiyev, O. R. (2015). The role of the family, mahallas and educational institutions in the education of youth. Society: sociology, psychology, pedagogy, 3, 29-30
6. Топилдиев, О. Р. (2015). Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи. Общество: социология, психология, педагогика, (3), 29-30.